

“IMOM MOTURIDIY” ROMANIDA INTERTEKSTUAL BIRLIKLAR**Tilavova Iroda Hamro qizi**

Termiz davlat universiteti

Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20497905>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romanida intertekstuallik hodisasining badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinadi. Asarda Qur‘oni Karim oyatlari, hadisi shariflar va diniy-falsafiy manbalardan foydalanish usullari yoritilib, ularning syujet rivoji, qahramonlar xarakterini ochish hamda Imom Moturidiy ta‘limotining mohiyatini ifodalashdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida romandagi intertekstual birliklarning ma‘naviy-ma‘rifiy mazmunni boyitish, diniy-falsafiy qarashlarni asoslash va o‘quvchiga estetik ta‘sir ko‘rsatishdagi ahamiyati tahlil etilgan. Natijada, intertekstuallik asarning g‘oyaviy-badiiy yaxlitligini ta‘minlovchi muhim poetik vosita ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: intertekstuallik, intertekst, Qur‘on oyatlari, hadislar, iqtibos, Luqmon Bo‘rixon, Imom Moturidiy romani, diniy-falsafiy tafakkur, poetika, badiiy talqin, ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oya, Imom Moturidiy ta‘limoti.

Bugungi shiddat bilan rivoj topayotgan zamonda ilmiy terminlarning hayotimizga kirib kelishi ham tez va oson kechmoqda. Badiiy adabiyot ham bu jihatdan aslo orqada qolgan emas.

Garchi adabiyotimizda anchadan buyon bong uryotgan “intertekstuallik” tushunchasi ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lsa-da, bu terminning adabiyotimizdagi o‘rni va ahamiyati haqida ko‘p gapirilmadi.

U muallifning boshqa matnlarga murojaati, iqtiboslar, ishoralar va yashirin ma‘nolar orqali ifodalanib, o‘quvchining matnni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shu jihatdan, intertekstuallik matn mazmunini boyituvchi va uning talqin doirasini kengaytiruvchi muhim vosita hisoblanadi. “Intertekstuallik” termini paydo bo‘lganiga ko‘p bo‘lmagan ammo mazmunan juda qadimiy termindir. “Modomiki, “adabiyot, ma‘daniyat, jamiyat, tarix, inson-bularning bari matn tarzida o‘qilishi va uqilishi mumkin ” ekan, demak, intertekstuallikning yoshi ham inson, ma‘daniyat, jamiyat, tarix tushunchalari bilan teng deyish mumkin”¹. Badiiy adabiyotda o‘zidan oldin aytilgan so‘zni o‘zidek ko‘chirib olish so‘z nufuzini yo‘qotishi mumkin. Lekin aytilgan fikrni keltirib izidan fikr berilsa “nur ustiga nur” dir. Intertekstuallik ham fikrlar dalili desak xato bo‘lmas, albatta. Terminni ilk marotaba fanga fransuz filologi Y. Kristeva kiritgani haqida ma‘lumotlar mavjud. Unga ko‘ra, “har qanday matn undan avval yaratilgan matnlarning transformatsiya qilgan holda o‘ziga singdirgan sitatalar majmuidir”²

Shuningdek, yana bir fransuz adabiyotshunosi R. Bart ham intertekstuallikni qo‘llab-quvvatlaydi va uni “qo‘shirnoqsiz sitata” deb ataydi.³ Bu fikrlarga tayanadigan bo‘lsak, barcha matnlar ko‘chirma sitata bo‘lib, ijodkor mahoyati va badiyatidagi his-tuyg‘u, kechinmalar, ruhiyat masalasi yo‘qqa chiqadi. Voqelik oddiy so‘zlashuv nutqidek insonga emotsional ta‘sir etmay qoladi. Vaholanki, badiiy adabiyotda bir-biriga ergashish, o‘zaro ta‘sir hamda an‘anaviylik bor narsa va bularsiz adabiyotni tasavvur qila olmaymiz.

¹ Mamajonov Z.A. Iqtibos san‘ati va intertekstuallik xususida // Ilmiy xabarnoma / Seriya: Gumanitar tadqiqot. – Andijon: 2023 / 5 (73) – B. 85.

² Mamajonov Z.A. Iqtibos san‘ati va intertekstuallik xususida // Ilmiy xabarnoma / Seriya: Gumanitar tadqiqot. – Andijon: 2023 / 5 (73) – B. 85.

³ Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - Toshkent: Akadernashr, 2013. - 408 b.

Sharq adabiyoti azaldan didaktik ruhni o'zida mujassam etib, asarlarda o'z ifoda xususiyatini namoyon etib kelmoqda. Mumtoz adabiyotimizda esa shunday bir janr borki, ularni qo'llash orqali yozuvchi fikrini izohlash, dalillashga ega bo'ladi. Bu iqtibos janri va iqtibos haqida Atoullloh Husayniy quyidagi fikrni ilgari suradi. "Qur'on yo hadisdin bir nimani aning Qur'on yoki hadisdin oling'aniga ishora bo'lmag'an tarzda kalomga kiritmakdin iborattur..."⁴ "Imom Moturidiy romani ham o'zida Qur'on va hadislardan namunalar keltirib, asarini boyitgan. " Intertekstuallikning mohiyati keraksiz emasligini Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" romanida jamlangan qur'oniy va boshqa intertekslarning izohi asosida yoritamiz.

Roman X asr boshlaridagi ko'hna Samarqandning siyosiy - ijtimoiy, ma'rifiy hayotidan lavhalarni Imom Moturidiy hayoti misolida yoritib beradi. Asardagi dialoglar, o'zaro suhbatlar, qahramonlar o'rtasidagi konfliktlar, ma'ruzalar bayoni voqeani jonli qilib tasvirlashga ko'mak bergan. Shuningdek, go'zal qur'oniy intertekslar har bir bahs- munozaralarga misoli yechim bo'lib asarni boyitgan. Misol uchun "Qiyinlashtirmang, yengillashtiring..." mazmunidagi hadisi sharif Imom Moturidiyning yoshlikdagi do'sti Vosiq ibn Qosim tilidan aytilgan va tahajjud namozini o'qimoqlik farz emas-ku qabilida so'z aytishda foydalanilgan. Yoki "Kimning hijrati mol-u dunyo bo'lsa, ani topgay, ki ayol uchun bo'lsa, ang'a erishgay" kabi interteks asosida yozuvchi Imom Moturidiy qoshiga ilm izlab kelgan yigit- Javodga qarata aytgan hadisi ila asl maqsad-muddaoni tez anglaganini ko'rsatib o'tgan. Asar diniy ruhda yozilgan asarlar sirasiga kiradi va kimki mutolaaga kirishsa, diniy bilimlarga ega bo'ladi va pand-nasihat ruhi kuchli ekanligini his qiladi. Ma'ruzalarning birida Imom Moturidiy ahli jamoaga qarata ushbu so'zlarni aytib o'tadi: "Mo'minlar onasi Oisha roziyallohu anho Nabiy sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladilar, ki ul zot bir kun kelib ummatim maishatga berolib semirib ketishidan qo'rqaman, qabilinda so'z aytadilar. Ey, ahli islom, ey ahli Samarqand, nahotki biz Rasuli akram tilga olgan o'sha ummatimiz?!"⁵ Yuqorida keltirilgan kitobdan parcha yuraklarni larza keltiradi va chuqur o'yg'a toldiradi. Bu ham interteksning qudrati desak adashmagan bo'lamiz.

Bundan tashqari asarda arabiy tildagi intertekslar mavjud bo'lib, ular nima maqsad bilan asarga ko'chgani ko'chirmalardan so'ng berilgan mazmuni ila oydinlashadi. Asarning "Musibat yetgan kun" bo'limida ana shunday interktekslarni uchratamiz va bu parchalar qarshi tomon uchun ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltirgan. "Kimki, la ilaha illalloh, kalimasini aytsa, albatta, jannatga kiradi, mazmunidagi payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning hadislarini dalil sifatida keltirdilar",- deya shogirdlar bir jamoaga duch kelganlari va ular, til bilan iqror bo'lishning o'zi iymonni sobit qiladi deb ushbu kalimani aytishganini ustoz Moturidiyga so'zlab berishadi va bu haqiqatmi deya so'roq berishadi. Imom esa quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Iymonning sharti ushbudir, - iqror bio lison vat tasdiq bil qalb bima joa bihi min indillohu Muhammadur rasulullohu sallallohu alayhi vasallam, ya'ni iymon Rasuli Akram sallallohu alayhi vasallam Allohning huzuridan keltirgan narsalarga til bilan iqror bo'lib qalban ishonishdan, tasdiqlashdan iborat. Mazkur imom A'zam Abu Hanifa bergan ta'limotga asosandir. Yana bir munozarada sallasi andak qo'polroq o'ralgan, ko'kish to'nli buxorolik mudarris tavoze bilan ustozdan so'radi: "Mo'tazilachilar kishi yomon amallarini o'zi yaratadi va inson bajaradigan ishlariga o'z ixtiyoriga ega, shuning uchun ham qiyomat kuni qilgan har bir ishi uchun javob beradi deyishadi. Ammo Allohu taolo Qur'oni Karimda, "Allohu xolaqokum va ma ta'malun", ya'ni, Xolbuki, sizlarni ham, sig'inyotgan butlaringizni ham Alloh yaratgan-ku?!" deydi.

⁴ Husayniy Atoullloh. Badoyi' us- sanoiy. - Toshkent: Gafur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'ant. - 1981.

⁵ Luqmon Bo'rixon..Imom Moturidiy. – Toshkent:Yosh kuch, 2023. – B.163.

Va yana oyati karima mavjudki, “vama tashauna illa ay yashaa Allohu robbul ‘alamiyn”, ya’ni Sizlar faqat olamlar Parvardigori bo‘lmish Alloh xohlasagina (to‘g‘ri yo‘lda bo‘lishni xohlarsiz”, deydi. Mo‘tazilachilar esa inson hamma ishlarida mutlaq ixtiyorli, qabilida da’vo qo‘zg‘aydilar. Bu chigalliklarni qanday tushunish mumkin deya so‘raydi. Imom Moturidiy esa hayotiy misollar asosida tushuntirib, shunday deydi: “Alloh subhanahu taolo bandalarini iymon keltirishlikka, o‘zining buyruq va qaytaruvlariga amal qilishlikka o‘zining buyurdi. Inson mazkur amrlarni ado etib, Alloh taoloning mukofotiga erishlikda ham, yoki andin bosh tortib, osiy qilib Allohning azobiga yo‘liqishlikda ham ixtiyorga egadir. Gunoh va savob masalasi, bu insonning imkoniyati va ixtiyor- xohishlarida erkin bo‘lgan ishlardir”⁶.

1) "Mana shunday! Yana, Biz ularga oppoq yuzli katta va chiroyli ko‘zli hur qizlarni juft qilib berurmiz" (Duxon surasining 54-oyati) 77-bet

2) Allohu subhanahu va taolo lutf etadi:"U (Alloh)... imonlariga yana imon qo‘shilishi uchun mo‘minlarning dillariga taskin tushirgan zotdir" ("Fath" surasi 4-oyat)149-bet

3) A‘uzu billahi minash shaytonir rojiym "Ey, Odam avlodi! Shayton otaonalaringiz (Odam va Havvo) ning avratlarini o‘zlariga ko‘rsatib (uyaltirib) jannatdan chiqargani kabi sizlarni ham aldab qo‘ymasini! Zero, u va uning to‘dasi sizlar ularni ko‘ra olmaydigan tarafdin sizlarni ko‘radilar. Biz shaytonlarni imon keltirmaydiganlarga do‘st qilib qo‘ydik." ("A‘rof" surasi)164-bet

4) "Ey, imon keltirganlar! Allohga chin tavba qilingiz, shoyadki, Robbingiz sizlarning gunohlaringizni o‘chirib, ostidan anhorlar oqib turadigan(jannatdagi) bog‘larga kiritsa"("Tahrim" surasi) 168-bet

5) "Ey, imon keltirganlar! Sizlardan oldingi ummatlarga farz qilingani kabi sizlarga ham ro‘za tutish farz qilindi, shoyad u tufayli taqvoli bo‘lsangiz." ("Baqara" surasi) 168-bet

6) "Agar mo‘minlardan ikki toifasi o‘zaro urushib qolsalar, darhol ular o‘rtasini isloh etingiz!

Bas, agar ulardan biri ikkinchisining ustiga tajovuzkorlik qilsa, bas, to (tajovuzkor toifa) Allohning amriga qaytguncha, sizlar tajovuz qilgan (toifa) bilan urushingiz! Endi agar u (toifa tajovuzkorlikdan) qaytsa, sizlar darhol ularning o‘rtasini adolat bilan tuzatib qo‘yinglar va adolatli bo‘lingiz! Zero, Alloh adolatlilarni sevar". ("Hujurot" surasi) 168-bet

7) "... namozni barkamol o‘qiydigan va rizq qilib berganimizdin sadaqa va ehson chiqaradigan kishilardir. Aynan o‘shalar haqiqiy mo‘minlardir! ("Anfol" s"Ey, Rasul! Og‘izlari bilan:"Imon keltirdik" deydi, (lekin) dillari imon keltirmaganlardan...(bir qismi) kufr sari intilayotganlari Sizni xafa qilmasin!.." ("Moida" surasi) 177-bet

8) "Hech bir ko‘z Xudoning haqiqatini idrok qila olmaydi. Alloh taolo ko‘z ahllarining haqiqatini idrok qiladi". ("An‘om" surasi) 177-bet

9) "Holbuki, sizlarni ham, sig‘inayotgan butlaringizni ham Alloh yaratganku?!" ("As-Soffat" surasi 95-oyat) 178-bet

10) "Sizlar faqat olamlar Parvardigori bo‘lmish Alloh xohlasagina (to‘g‘ri yo‘lda bo‘lishni xohlarsiz" ("At-Takvir" surasi) 178- bet

Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romani intertekstuallikning samarali qo‘llanilishi orqali diniy-falsafiy g‘oyalar va ma‘naviy qadriyatlar talqinida muvaffaqiyatli natijaga erishgan. Muallif Qur‘oni Karim oyatlari (“Baqara”, “Hadid”, “Isro”, “Anfol”, “Hujurot” va boshqalar) va payg‘ambarlik hadislarini asarning muhim joylarida (“Sirli maktub”, bahs-munozara sahnalari, shogirdlar suhbatlari) iqtibos qilib, Imom Moturidiy ta‘limotining

⁶ Luqmon Bo‘rixon..Imom Moturidiy. – Toshkent:Yosh kuch, 2023. – B.180.

asosiy tamoyillarini – aql va naql uygʻunligi, taqvo, adolat va iymon masalalarini chuqur ochib bergan. Asarda keltirilgan intertekstar nafaqat mazmuniy boyitish vositasi, balki voqealar rivojini harakatlantiruvchi va qahramonlar xarakterini yorituvchi muhim badiiy unsurlar sifatida xizmat qiladi. Jumladan, “Kimki la ilaha illalloh kalimasini aytsa...” kabi hadislar orqali iymonning mohiyati, “Alloh sizlarni ham, sigʻinayotgan butlaringizni ham yaratgan-ku?!” oyati orqali muʼtaziliy qarashlar tanqidi, “Biz insonni mashaqqat chekadigan qilib yaratdik” oyati orqali inson hayotining maʼnosi kabi mavzular yoritilgan.

Umuman olganda, Luqmon Boʻrixon intertekstuallikdan mohirona foydalanib, tarixiy romanni maʼnaviy-maʼrifiy asarga aylantirdi. Roman nafaqat oʻtmishdagi buyuk allomaning hayotini tiklaydi, balki bugungi kun uchun ham dolzarb boʻlgan eʼtiqod sobitligi, ilmga sadoqat va axloqiy poklik gʻoyalari targʻib qiladi. Bu jihati bilan asar zamonaviy oʻzbek adabiyotida diniy-falsafiy tafakkurning badiiy ifodasi boʻyicha muhim namunadir.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Mamajonov Z.A. Iqtibos sanʼati va intertekstuallik xususida // Ilmiy xabarnoma / Seriya: Gumanitar tadqiqot. – Andijon: 2023 / 5 (73) – B. 85.
2. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lugʻati. - Toshkent: Akademnashr, 2013. - 408 b.
3. Husayniy Atoullloh. Badoyiʼ us- sanoiy. - Toshkent: Gafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼant. - 1981.
4. Luqmon Boʻrixon..Imom Moturidiy. – Toshkent:Yosh kuch, 2023.